

TILNING IJTIMOIV TARMOQLARDAGI AHVOLI

(ta'limga ta'sir)

Nurmonova Jasmina

Samarqand davlat pedagogika inistituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1- bosqich talabasi,

Ilmiy rahbar: Ozoda Anorqulova

Annontatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo'layotgan tilning o'zgarishlarini tahlil qiladi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning so'zlashuv tiliga ta'siri, jargonlar, argolar, eksvevalentsiz leksika, varvarizm, vulgarizm kabilarning qo'llanilishi haqidagi o'z qarashlarimiz bayon qilinadi. Zamonaviy aloqa vositalarining tilni qanday shakllantirishi va so'zlashuvda qanday o'zgarishlar yuz berishi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: jargonlar, argolar, eksvevalentsiz leksika, varvarizm, vulgarizm, internet, ijtimoiy tarmoq.

THE STATE OF LANGUAGE ON SOCIAL NETWORKS

(Impact on Education)

Nurmonova Jasmina

1st-year student, Uzbek Language and Literature Program

Samarkand State Pedagogical Institute,

Scientific Supervisor: Ozoda Anorqulova

Abstract. This article analyzes the changes in language that are taking place in social networks today. The article presents our views on the impact of social networks on spoken language, the use of jargon, argot, non-equivalent vocabulary, barbarisms, vulgarisms, etc. It examines how modern means of communication shape language and what changes occur in speech.

Keywords: *jargon, argot, irrelevant vocabulary, barbarism, vulgarism, internet, social media.*

СОСТОЯНИЕ ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

(влияние на образование)

Нурмонова Жасмина

студентка 1 курса направления «Узбекский язык и литература»

Самаркандский государственный педагогический институт,

Научный руководитель: Озода Аноркулова

Аннотация. *В данной статье анализируются изменения в языке, происходящие сегодня в социальных сетях. В статье представлены наши взгляды на влияние социальных сетей на разговорную речь, использование жаргона, арго, неэквивалентной лексики, варваризмов, вульгаризмов и т. д. Рассматривается, как современные средства коммуникации формируют язык и какие изменения происходят в речи.*

Ключевые слова: *жаргон, арго, не относящаяся к делу лексика, варварство, вульгаризм, интернет, социальные сети.*

Bugungi kunda axborot texnologiyalari til taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiyasining asosiy maydoniga aylangan bir davrda tilning qo'llanish doirasi, uslubi va normativ holatida muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Hozirda bloggerlik faoliyati keng ommalashib, internet makonida til namunasini shakllantiruvchi kuchli omilga aylangan. Bloggerlar nutqi millionlab auditoriyaga ta'sir ko'rsatishi sababli ularning tilga munosabati lingvistik jihatdan alohida tadqiq etilishi zarur. So'zlashuv va yozishmalarda yangi so'zlar, qisqartmalar, jargonlar, argolar, varvarizmlar, vulgarizmlar, emojilar kabi vizual ifodalardan foydalanish tez sur'atlar bilan keng tarqalmoqda. Tilning o'zgarishiga hissa qo'shayotgan asosiy tashqi omillardan biri ijtimoiy tarmoqlardir, ayniqsa, Facebook,

Instagram, Telegram, You tube kabi platformalardagi so'zlashuv va yozishmalar lingvistika jihatdan o'rganilmoqda. Ushbu mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish uchun bir qator muhim manbalar va tadqiqot usullari mavjud. Naomi S. Baron – "Always On: Language in an Online and Mobile World" (2008). Kitob internet va mobil texnologiyalar ta'sirida til qanday o'zgarayotganini o'rganadi. Muallif virtual muloqot va an'anaviy yozishmalar o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilib, raqamli kommunikatsiyaning kelajagi haqida fikr yuritadi. Kitob o'nta bobdan iborat bo'lib, unda onlayn va mobil aloqa turlarining tarixi bayon qilinadi hamda bu texnologik vositalar kundalik hayotga tobora chuqurroq singib borishi natijasida lingvistik va ijtimoiy me'yorlarning qanday o'zgarishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Muhim boblarda ayrim Aloqa texnologiyalariga (masalan, tezkor xabar almashish, mobil telefonlar) oid fanlararo tadqiqotlar keltirilgan hamda ular nuqtai nazaridan o'xshash texnologiyalar va aloqa amaliyotlari (masalan, telefonlar, jonli qo'ng'iroqlar orqali suhbatlar) bilan solishtiriladi. Mazkur kitobning boblarida nutq tahlili, sotsiolingvistika, antropologiya va neyrobiologiya bo'yicha tadqiqotlar umumlashtirilgan bo'lib, Baron va uning hamkasblari o'n yil davomida AQShning bakalavr talabalari orasida olib borilgan tadqiqot natijalari ham keltirilgan. Muallif til o'zgarishlarini lingvistik nazariya asosida tahlil qiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi so'zlashuv va yozishmalar ya'ni postlar izohlar va xabarlarini o'rganish orqali til o'zgarishlarini real misollar asosida tahlil qilindi.

Qisqartmalar. Ijtimoiy tarmoqlarda til o'zgarishining ijtimoiy va madaniy jihatlari shuningdek, yoshlar orasida tez tarqalgan til o'zgarishlari haqida fikr yuritiladi. Facebook, Tik Tok, Instagram, You tube, Telegram kabi platformalar inson muloqoti va tiliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, hozirda bloggerlar uzun jumlar o'rniga qisqartirilgan shakllarni afzal ko'rmoqda. Masalan, SMS (Short message service), OMG (Oh My God = Voy, Xudo), LOL (Laughing Out Loud = yotvolib kulyapman), BRB (Be Right Back = Bir ozda qaytaman), BTW (By The Way = aytgancha), FYI (For your information = foydali ma'lumot), TBH (To Be Honest = rostini aytsam), IDK (I Don't know = bilmayman), OK kabi qisqa javoblar uzoq tushuntirishlarning o'rnini egallayapti. Bu qisqartmalar kommunikativ qulaylik yaratsa-da, ularning ayrim zararli

yoki salbiy jihatlari ham mavjud. Quyida bu masala ilmiy asosda tushuntiriladi. Tilshunos David Crystal internet nutqi haqida yozar ekan, raqamli muhitdagi qisqartmalar yozma nutqni og'zaki nutqqa yaqinlashtirib, rasmiy uslub me'yorlarini susaytirishini ta'kidlaydi. Zararli yoki salbiy jihatlari ham mavjud. Quyida bu masala ilmiy asosda tushuntiriladi. Tilshunos David Crystal Internet nutqi haqida yozar ekan, raqamli muhitdagi qisqartmalar yozma nutqni og'zaki nutqqa yaqinlashtirib, rasmiy uslub me'yorlarini susaytirishini ta'kidlaydi.

1. To'liq so'z o'rniga qisqartma ishlatilishi imlo ko'nikmasini pasaytiradi.

2. Yoshlar rasmiy matnlarda ham "IMO", "IDK" kabi shakllarni qo'llab yuborishi mumkin.

3. Katta yoshdagi auditoriya ko'plab Internet qisqartmalarini tushunmasligi mumkin. Bu esa kommunikatsion uzilishga olib keladi.

Lakunalar. Ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarga e'tibor beradigan bo'lsa tarjima jarayonida lakuna ekvivalentsiz leksikalardan ham foydalanilayotganligini ko'rmoqdamiz. Masalan, realizatsiya, xotdog, sendvich, marka, dollar, rubl, selfie, hashtag, vlog, meme, va boshqalar. Ilmiy adabiyotga "lakuna" atamasini ilk bora kiritgan kanadalik tilshunoslar J. P. Vina va J. Darbelnelar "bir so'z ifodalaydigan ma'noning ikkinchi bir tilda mavjud bo'lmasligi holati" deya ta'rif beradilar. Aynan shunday fikrni Yu. S. Stepanov va V. I. Muravyeo tadqiqotlarida ham uchratamiz.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida shunday so'zlar mavjudki, ular bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinayotganda o'zining muqobil variantini topolmaydi yoki ushbu so'zning keyingi tilda aniq tarjima varianti bo'lmaydi. Shuning uchun o'sha so'zlarning asl variantini ikkinchi bir tilda ham qo'llashga to'g'ri keladi. Bunday so'zlar "ekvivalentsiz leksika", "muqobilsiz leksik", "lacuna", "oq dog'lar" deb ataladi. I.A.Stanning ta'kidlashicha, "Ikki tilni qiyoslab o'rganish jarayonida vujudga keladigan tillararo lakunalar bular ekvivalentsiz leksikalardir". Masalan, Amerika Qo'shma shtatlari, "dollar", ining, ingliz "funt sterling" ining, nemis "marka" si-yu, hind "rupiya" sining, afg'on "afg'oniy" sining transliteratsiya qilmasdan, o'zbek "so'm" i bilan almashtirib qo'yilishi bilan baravardir.

Jargonlar. Jargon bu ma'lum bir ijtimoiy guruh, kasb yoki faoliyat doirasida ishlatiladigan maxsus so'zlar, iboralar yoki atamalar. Bloggerlar nutqida hozirgi kunda ko'p jargonlar (ya'ni o'ziga xos so'zlar, iboralar, internet tilining atalmalari) uchraydi. Bu jargonlar ko'pincha ingliz tilidan olingan bo'lib, ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez qo'llanadi va yoshlar orasida ommalashgan. Masalan, "Gender party", "Mary mee", „GRVM" kabi so'zlar ko'p blog postlar va videolarda uchraydi. Bunday jargonlar katta yoshdagi auditoriya va internet tiliga kirishmagan odamlar uchun tushunarsiz hisoblanadi. Shuningdek, jargonlar auditoriya orasida aloqa uzilishiga olib keladi.

Argo. bu ma'lum bir ijtimoiy guruhga xos bo'lgan, ko'pincha yashirin ma'noga ega yoki adabiy tildan chetga chiqqan so'z va iboralar yig'indisidir. Bloggerlar o'z auditoriyasi bilan "yaqin bo'lish", "trendda qolish" yoki nutqiga emotsionallik qo'shish maqsadida "soqqani bosish" (pul topish), "otmetka qilish" (belgilash), "krutoy"(zo'r)kabi birliklarni muntazam ishlatmoqdalar. Misol uchun, o'g'rilar orasida "shmon qilmoq", "gopstop qilmoq" iboralar, "o'g'irlamoq" ma'nosida, giyohvandlar argosida dori, "giyohvand modda" ma'nosida ishlatiladi. Bunday nutq madaniyatining salbiy tomonlari juda jiddiy oqibatlariga olib keladi. Birinchidan, bu milliy adabiy tilning qashshoqlashishiga va meyorlarning buzilishiga sabab bo'ladi. Yosh avlod adabiy so'zlar turganda ularning "ko'cha" variantlarini afzal ko'ra boshlaydi. Ikkinchidan, argolar ko'p hollarda qo'pol va istehzoli bo'lgani uchun ular muloqotda etika va estetikadan uzoqlashishga, hatto odob axloq qoidalarining emirilishiga xizmat qiladi.

Varvarizmlar. Hozirgi o'zbek blogerlari nutqida varvarizmlar ya'ni o'zbek tilida muqobili bola turib, boshqa tillardan (asosan, rus va ingliz tillaridan) o'zlashtirilgan, tilning fonetik va grammatik, qonuniyatlariga moslashmagan so'zlarni asossiz qo'llash juda keng ildiz otgan. Masalan, Bloggerlar o'z chiqishlarida "uzun hikoya" deyish o'rniga "story", "fikr - mulohaza" deyish o'rniga "feedback", „ Namoyish “ o'rniga „, Premyera “ , „yoqdi " deyish o'rniga " like" yoki „ Qaytim pul “ o'rniga „, Здачи” kabi birliklarni ishlatishmoqda. Shuningdek, kundalik hayotdagi "skidka" (chegirma), "sok" (sharbat), "obed" (tushlik) kabi so'zlar ham varvarizmning yorqin misollaridir. Varvarizmning salbiy tomonlari, birinchi navbatda, tilning lug'at boyligi va sofligiga

putur etkazishida namoyon bo'ladi. Bloggerlar "trend" ortidan quvib, o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanmasligi natijasida tilimiz "surrogat" (aralashma) tilga aylanib qolmoqda. Bu jarayon milliy o'zlik va til g'ururining susayishiga olib keladi. Yoshlar o'z ona tillarida gapirishni "eskirgan" deb hisoblab, ajnabiy so'zlar aralashtirib gapirishni "zamonaviylik" belgisi deb qabul qila boshlaydi.

Vulgarizmlar. Bu jamiyatda umumqabul qilingan axloq me'yorlariga zid keladigan madaniyatli kishilar muloqotida ishlatilishi nomaqbul hisoblangan haqoratli, so'kinish xarakteridagi yoki o'ta qo'pol so'z va iboralardir. Hozirgi kunda ayrim bloggerlar "samimiyat" yoki "haqiqatni boricha ko'rsatish" niqobi ostida o'z videolarida "hayvon", "yaramas", "iflos", "ahmoq", "Mayna" kabi so'zlardan tortib hatto eng past kamsituvchi iboralarni ham qo'llashmoqda. Ayniqsa, jonli efirlarda o'zaro tortishuvlar paytida raqibini "yerga urish" uchun ishlatiladigan "latta", "tovuqmiya", "dusi etmaydi". "radaringa la'nat", "irkit" kabi vulgar unsurlar va pichinglar bloggerlar nutqining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardagi tilning holati va uning ta'limga ta'siri lisoniy determinizm va kognitiv psixologiya sohalarida o'rganilmoqda. Raqamli muloqotda "tejamkorlik tamoyili" (principle of least effort) ustunlik qiladi, bu esa o'quvchilarning sintaktik qurilmalarni soddalashtirib yuborishiga olib keladi. Masalan, professor David Kristal o'zining "Language and the Internet" tadqiqotida ta'kidlashicha, internet tili na yozma na og'zaki nutq qoidalariga bo'ysunadi, balki "uchinchi muhit"ni hosil qiladi. Bu muhit tinish belgilari va bosh harflarning inkor etilishi ta'lim oluvchilarda akademik yozuv va norasmiy yozuv o'rtasidagi chegarani yo'qotib qo'ymoqda. Buning natijasida "klipcha fikrlash" hodisasi yuzaga keladi, bu kognitiv jarayonlarda chuqur tahlil qilish qobiliyatining pasayishi bilan xarakterlanadi. Stenford universiteti tadqiqotchilari ko'p vazifalilik va ijtimoiy tarmoq tili talabalarning diqqat konsentratsiyasini 40% gacha kamaytirishini aniqlaganlar.

Ijtimoiy tarmoqlar tilning tabiiy rivojlanishiga emas, balki uning tizimli ravishda qashshoqlashuviga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli muloqotdagi "savodxonlikdan voz kechish" tendensiyasi yosh avlodning akademik salohiyatiga bolta urmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi cheklangan so'z boyligi va

mantiqsiz qisqartmalar inson tafakkur doirasini ham toraytirib, murakkab tushunchalarni idrok etish qobiliyatini so'ndirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar ta'lim tizimi uchun yordamchi vosita emas, balki til me'yorlarini emiruvchi va o'quvchilarning kognitiv diqqatini parchalovchi asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Review bu Shannon Review of always on :language in an online and mobile world . Language learning and technology . October 2010. Volume 14 number 3.
2. David Crystal (2006). Language and the Internet
3. Hamidulla Dadaboyev, Shoira Usmanova. Xorijiy sotsiolingvistika. Toshkent 2014
4. Nizomiddin Mahmudov " Til " hamda "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarida" nomli asarlari.